



**ZAMONAVIY VA SIFATLI TA'LIMNI YANADA RIVOJLANTIRISH, ILMIY
IZLANISHLAR ORQALI TARAQQIYOTGA MUNOSIB HISSA QO'SHISH
MUAMMOLARIGA BAG'ISHLANGAN XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**

24-25-aprel, 2025-yil

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ ВОПРОСАМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
СОВРЕМЕННОГО И КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ, А ТАКЖЕ
ВНЕСЕНИЯ ЗНАЧИМОГО ВКЛАДА В РАЗВИТИЕ ЧЕРЕЗ НАУЧНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

24-25 апреля, 2025 года

**PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE ON ADVANCING MODERN AND QUALITY EDUCATION AND
CONTRIBUTING TO DEVELOPMENT THROUGH SCIENTIFIC RESEARCH**

24-25 April, 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

АЗИАТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY

**ZAMONAVIY VA SIFATLI TA’LIMNI YANADA RIVOJLANTIRISH,
ILMIY IZLANISHLAR ORQALI TARAQQIYOTGA MUNOSIB HISSA
QO‘SHISH MUAMMOLARIGA BAG‘ISHLANGAN XALQARO ILMIY-
AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЁННОЙ ВОПРОСАМ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО И КАЧЕСТВЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ, А ТАКЖЕ ВНЕСЕНИЯ ЗНАЧИМОГО ВКЛАДА В
РАЗВИТИЕ ЧЕРЕЗ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**

**PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE ON ADVANCING MODERN AND
QUALITY EDUCATION AND CONTRIBUTING TO DEVELOPMENT
THROUGH SCIENTIFIC RESEARCH**

BUXORO – 2025

“Zamonaviy va sifatli ta’lim taraqqiyot negizidir” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to’plami /S.S. Dexkanovning umumiy tahriri ostida – Buxoro: OXU, 2025 – 856 b.

Dasturiy qo‘mita:

S.S. Dexkanov, Osiyo xalqaro universiteti rektori, rais;
A.A. Ikramov, OXU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
M.N. Nurullayev, OXU O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
Z.O. Qoryog‘diyev, OXU Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti dekani, a‘zo;
Z.Z. Gafarova, OXU Tarix va filologiya kafedrası mudiri, a‘zo;
M.A. Sadullayeva, OXU Tarix va filologiya kafedrası dotsenti, a‘zo;
L.E. Gadoyeva, OXU Tarix va filologiya kafedrası dotsenti, a‘zo;
D.A. Murodova, OXU Tarix va filologiya kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
N.Z. Tasheva, OXU Tarix va filologiya kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
U.Sh. Sadullayev, OXU Tarix va filologiya kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
M.A. Mustafoyeva, OXU Tarix va filologiya kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
A.O. Ollomurodov, OXU Tarix va filologiya kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

BUXORO VOHASIDA MILLIY MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti t.f.f.d.(PhD), dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda Buxoro vohasida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar faoliyati to'g'risida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, ko'p millatli mamlakat hisoblangan O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning erkin faoliyati millatlararo munosabatlar va dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: milliy madaniy markazlar, tolerantlik, bag'rikenglik, munosabat, millatlararo munosabatlar, totuvlik, millatlararo totuvlik, an'analar va urf-odatlar, til, din, milliylik, baynalmilal.

Abstract. In this article, opinions are expressed about the activities of the national cultural centers currently operating in the Bukhara oasis. It was also noted that the free activity of national cultural centers in Uzbekistan, which is considered a multi-ethnic country, is of particular importance in strengthening the principles of inter-ethnic relations and inter-religious tolerance. The activity of national cultural centers in Bukhara plays an important role in preserving and developing a multi-ethnic and colorful cultural environment, as well as in strengthening the unity of representatives of different nationalities. As one of the most ancient and multicultural cities of Uzbekistan, Bukhara has combined the unique traditions and customs of representatives of different nationalities and peoples. National-cultural centers are public organizations that serve to meet the national cultural needs of representatives of a certain nationality living in Uzbekistan. Reasonable opinions about the importance of national cultural centers in uniting representatives of different nationalities as a single family, ensuring social stability, preserving cultural diversity and passing it on to future generations have their roots in this article.

Keywords: national cultural centers, tolerance, tolerance, attitude, inter-ethnic relations, harmony, inter-ethnic harmony, traditions and customs, language, religion, nationality, international.

Kirish. Millatlararo munosabatlar insoniyat tarixida doimo muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, turli tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta'sirida sodir bo'lgan. Millatlararo totuvlik O'zbekistonning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat mamlakat ichkarisidagi barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro maydonda ham davlatning ijobiy imidjini shakllantiradi. Bag'rikenglik va do'stona munosabatlar siyosati O'zbekistonni dunyoga tinchlikparvar davlat sifatida tanitadi. Qadimdan Buxoro vohasi geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va qadimiy shahar madaniyati tufayli har doim ko'p millatli hudud sifatida ajralib turgan. Savdo yo'llarining kesishmasida joylashganligi sababli, bu yerda turli millatlar tinchlikda birga yashash va madaniyatlarni boyitish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Natija va muhokama. Buxoroda milliy madaniy markazlar faoliyati ko'p millatli va rang-barang madaniy muhitni saqlab qolish, rivojlantirish, shuningdek, turli millat vakillarining birdamligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning eng qadimiy va ko'p madaniyatli shaharlaridan biri sifatida Buxoro o'zida turli millat va elat vakillarining o'ziga xos an'ana va urf-odatlarini uyg'unlashtirgan.

Milliy-madaniy markazlar — O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari[1] hisoblanadi. Milliy-madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy-madaniy markazlar muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni (1999-y. 14-aprel)ga asoslangan holda tuziladi. Nizomi tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi yoki viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro'yxatga olinadi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi[2].

Milliy madaniy markazlar o'z navbatida bir qancha muhim vazifalarni bajaradi:

Milliy madaniyatlarni saqlash va rivojlantirish: Markazlar har bir millatning tili, madaniyati, san'ati va urf-odatlarini saqlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil qiladi;

Do'stlik va birdamlikni targ'ib qilish: Turli millat vakillari o'rtasida tinch-totuv yashashni mustahkamlash uchun madaniy tadbirlar va ko'rgazmalar tashkil etiladi;

Madaniy-ma'rifiy faoliyat: Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun ma'ruzalar, adabiy kechalar va boshqa ma'rifiy dasturlar o'tkaziladi;

Millatlararo hamkorlikni rivojlantirish: Turli millat vakillarining birgalikdagi loyihalari, festival va konferensiyalar tashkil qilinadi.

Buxoroda o'zbek, tojik, rus, qozoq, tatar, yahudiy, turkman va boshqa millatlarning madaniy markazlari mavjud[3,5]. Ushbu markazlar quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Madaniy tadbirlar: Har bir millatning milliy bayramlari, an'anaviy tadbirlari va festivallari muntazam ravishda o'tkaziladi.

Til va madaniyat kurslari: Yoshlarni ona tiliga va milliy madaniyatga yaqinlashtirish uchun o'quv kurslari tashkil qilinadi.

Tarixiy merosni targ'ib qilish: Markazlar Buxoroning ko'p madaniyatli tarixini saqlab qolish va dunyoga tanitish borasida ham faol ish olib boradi.

Shuningdek, Buxoroda har yili "Do'stlik va madaniyat festivali" kabi ko'plab yirik tadbirlar tashkil qilinadi. Ushbu tadbirlar orqali turli millat vakillari o'z madaniyati va san'atini namoyish etadi. Bu nafaqat millatlararo hamjihatlikni mustahkamlaydi, balki turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Milliy madaniy markazlar turli millat vakillarini yagona oila sifatida birlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy xilma-xillikni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlash ga ko'maklashish maqsadida yuqorida qayd etganimizdek, 1989 yildan dastlabki milliy madaniy markazlar tuzildi. Bu markazlarning chinakam rivojlanish va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi. O'zbekiston mustaqilligi ularning samarali faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlarni yaratib berdi[4,155-156].

Buxoro viloyatida ham arman milliy-madaniy markazi, Buxoro yahudiylari "Shalom" madaniy markazi, O'zbekiston nemislari "Vidergeburg" madaniy markazi, Respublika "Svetlitsa Polska" polyak madaniy markazining viloyat filiali, rus madaniy markazi, "Oftobi So'g'diyon" tojik-fors milliy madaniy markazi, tatar-boshqird milliy-madaniy markazi, turkman milliy-madaniy markazi, Buxoro shahar koreys milliy-madaniy markazi, Buxoro shahar turk milliy-madaniy markazlari tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu milliy-madaniy markazlarning o'ziga xos ish yuritish jihatlari va o'z oldiga qo'ygan maqsadi belgilangan. Ularning asosiy vazifasi mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashishdir.

Mamlakatimizda milliy madaniy markazlar faoliyati samaradorligini oshirish va turli millat vakillari o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son Farmoni qabul qilindi[5]. Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgan.

Jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'pmillatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish, xorijiy mamlakatlarda davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan erishilayotgan yutuqlarni keng targ'ib etishda, mamlakatimiz va jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichi va bosib o'tgan tarixiy yo'li haqidagi ob'ektiv tasavvurlarni shakllantirishda ko'maklashish, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari masalalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etish, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish va bevosita qatnashish ushbu qo'mitaning asosiy vazifalari sirasiga kiradi[6]. Bu kabi maqsadlarni amalga oshirishda samarali faoliyatni tashkil etish uchun milliy madaniy markazlarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlashda adliya organlari bilan hamkorlik qilish funksiyalarini doimiy ravishda bajarib keladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda, xususan, Buxoro vohasida millatlararo munosabatlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonning natijasidir. Bu jarayon asosan tinchlik, hamkorlik va madaniy uyg'unlik asosida rivojlangan. Zamonaviy davrda esa bu munosabatlarni saqlash va rivojlantirish davlat siyosati va jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/milliy-madaniy_markazlar
3. Qurbonova M. B. Buxoro vohasi millatlaro bag'rikenglik o'lkasi// Modernizatsiya, innovatsion taraqqiyot va tolerantlik rivoji istiqbollari. Respublika ilmiy konferensiya materiallari to'plami. 3-kitob. T., 2010. – B. 5.
4. Musayev D. O. Milliy siyosat va milliy-madaniy markazlar //Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. (Davriy to'plam). № 3. – B. 155-156.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2017-yil 19-may, PF-5046-son. Ushbu Farmon "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 23-maydagi 101 (6795)-sonida e'lon qilingan.
6. Karimov R. Milliy madaniyatlar ravnaqi. T., 1986. – B. 56.

O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH: ASOSIY TASHKILOTLAR VA ULARNING FAOLIYATI

*Yuldosheva Bibirajab Mirjonovna
Buxoro davlat universiteti t.f.f.d.(PhD), dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishga mas'ul tashkilotlar, ularning tarixi va hozirgi kundagi faoliyati tahlil qilinadi. Atrof-muhit muhofazasi global muammo bo'lib, O'zbekiston ham bu borada muayyan choralarni amalga oshirmoqda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida mamlakatda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida turli davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu maqolada ana shu tashkilotlarning tarixi, faoliyat yo'nalishlari hamda ekologik muhofazaga qo'shayotgan hissasi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va kelgusidagi istiqbollar ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, Ekologiya, Muhofaza qilish, Davlat ekologik nazorati, Tabiiy resurslar, Iqlim o'zgarishi, Ekologik xavfsizlik, Chiqindilarni boshqarish, Havo ifloslanishi, Suv resurslari, Barqaror rivojlanish, Ekologik monitoring, Orolbo'yi ekologik tiklanish, Yashil makon, Ekologik qonunchilik, Ekologik partiya, Xalqaro hamkorlik, Ekologik muammolar, Organik dehqonchilik, Cho'llanishga qarshi kurash.

Annotation. This article analyzes the organizations responsible for environmental protection in Uzbekistan, their history, and their current activities. Environmental protection is a global issue, and Uzbekistan is implementing specific measures in this regard. To ensure ecological sustainability, various state and non-governmental organizations operate in the field of ecology and environmental protection in the country. This article discusses the history of these organizations, their areas of activity, and their contributions to environmental conservation. Additionally, cooperation with international organizations and future prospects are also highlighted.

Keywords: Environment, Ecology, Protection, State environmental control, Natural resources, Climate change, Environmental security, Waste management, Air pollution, Water resources, Sustainable development, Environmental monitoring, Aral Sea ecological restoration, Green space, Environmental legislation, Ecological party, International cooperation, Environmental issues, Organic farming, Combating desertification.

Kirish. Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi dunyo miqyosida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, atmosfera ifloslanishi, suv va yer resurslarining kamayishi kabi ekologik muammolar O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida mamlakat ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha muhim qarorlar qabul qildi va shu sohada bir qator islohotlar amalga oshirildi.

2. TARIXIY TADQIQOTLAR VA UNING ENG SO'NGGI YUTUQLARI TA'LIM JARAYONINING ASOSI SIFATIDA

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHGA QARATILGAN MAQSADLAR Turdiyev Bexruz Sobirovich, Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o'g'li	111
GENDER TENGLIK VA MIGRATSIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR Turdiyev Behruz Sobirovich, Mansurova Nigora Dmitriy qizi	113
SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING RIVOJLANISH JARAYONI VA TARIXI Elov Ziyodullo Sattorovich, To'rayev Shaxriyor Ilg'or o'g'li.....	116
QADIMGI POYKENT HUDUDIDAN TOPILGAN MODDIY MADANIYAT NA'MUNALARI Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, Jumayeva Marjona Doniyor qizi.....	118
G'UZOR BEKLIGIDAGI OZODLIK KURASHI MASALALARI VA UNDA AFG'ONISTONNING TUTGAN O'RNI Orziyev Mahmud Zayniyevich, Raxmatov Ramshod	120
BUXORO SHAHRI SUV TA'MINOTI VA SHAHAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI Naimov Ismat Nusratilloevich, Safarov Mirsaid G'ayrat o'g'li.....	122
OT BILAN BOG'LIQ O'YINLAR TARIXI VA MADANIYATIGA OID AYRIM MUHOZAZALAR Ahrorbek A'zamjonovich Azizov.....	124
XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYANING ERONDA TA'SIRINING OSHIB BORISHI XUSUSIDA Orziyev Mahmud Zayniyevich, Boltayev Oxun Obid o'g'li.....	127
BUXORO VOHASIDA MILLIY MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna	130
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH: ASOSIY TASHKILOTLAR VA ULARNING FAOLIYATI Yuldosheva Bibirajab Mirjonovna.....	132
BUXORO TRIKOTAJ FABRIKASI TARIXI Utayeva Feruza Xolmamatovna	137
ZAMONAVIY MAHALLA - ETNOLOGIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li.....	140
NEMIS GAZETALARI VA KONSULLIK HISOBOTLARIGA KO'RA CEMAL POSHO: JISMONIY QIYOFASI VA SHAXSIY XUSUSIYATLARINING TAHLILI Asli Orunbayev	143
KAPITULYATSIYALARNING BEKOR QILINISHI: ITTIHOD VA TARAQQIY SIYOSATINING TARIXIY ASOSLARI VA NATIJALARI Asli Orunbayev.....	148
TARIX VA TA'LIM ENG SO'NGGI YUTUQLARNING O'QUV JARAYONIGA TA'SIRI Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Boboqulova Durdona Sanjar qizi	151
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARIXI:QADIMGI DAVRDAN HOZIRGACHA Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi	155
BUXORO AMIRLIGI MADRASALARINING MODDIY TA'MINOTI MASALALARI Elmurodova Nigora Jobir Qizi.....	158
BUXORO VOHASIDA DINIY MAROSIM VA URF-ODATLARDAGI TRANSFARMATSIYA JARAYONLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI Gulyamov Alisher Azizovich	161
JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARI VA ULARNING FAOLIYAT Gulyamov Alisher Azizovich, Atoeva Munira Farxodovna	165
TARIX SAHIFALARIDA SOHIBQIRON AMIR TEMUR Gulyamov Alisher Azizovich, Xamidova Rayxonabegim Xaydar qizi.....	168
YANGI O'ZBEKISTONNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI Jo'rayeva Donoxon Metinboyevna.....	171
НОВЫЕ МЕТОДОЛОГИИ В ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКЕ: ЦИФРОВАЯ ИСТОРИЯ, КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИИ Каримов Сухроббек Юсупович.....	175
O'ZBEKISTON SSRDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATINING PAXTACHILIKKA TA'SIRI Haqqulov Mehriddin Yunus o'g'li	178
BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISH TARIXINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARI Haqqulov Mehriddin Yunus o'g'li, Qosimov Umidjon Ismatillo o'g'li	180
THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN HISTORICAL ANALYSIS Haqqulov Mehriddin Yunusovich, Sadulloyeva Moxinur Sadullo qizi	183
QORAQALPOG'ISTONDA 1930-1936 YILLARDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLARNING TARIXIY TAHLILI Madreymov Farxat Maxsetbaevich.....	184